



PROFESSOR NIZOMIDDIN MAHMUDOV ASARLARIDA BIRIKMALARNING QO‘LLANILISHI

Boshmanova Dildora Mahram qizi

QDPI o‘qituvchi

E-mail: dildoraboshmanova8@gmail.com

Toshpo‘latova Gulira’no Baxtiyor qizi

QDPI talabalari

Turdaliyeva Nargizaxon Baxromjon qizi

QDPI talabalari

***Annotatsiya:** maqolada tilshunoslikda birikmalar va ularning qo‘llanilishi, badiiy matnni lingvopoetik tahlil qilishdagi o‘rni va Nizomiddin Mahmudovning birikmalar yuzasidan ilmiy qarashlari aks ettirilgan, badiiy matnlarda qo‘llanilgan lisoniy birikmalardan namunalar keltirilgan.*

***Kalit so‘zlar:** lisoniyiy birikmalar, lingvopoetika, oksyumoron, okkazonal so‘z, badiiy matn, ekspressivlik.*

Har qanday fikr nutqda namoyon bo‘lar ekan, so‘zlovchi axborotni tinglovchi shaxsiga nafaqat yetkazib berishni, balki bu fikrning tinglovchiga ta’sir etish ko‘lamini ham deyarli doimo nazarda tutadi. Shu boisdan ham nutqning ifodaliligi, ta’sirchanligini, ya’ni ekspressivligini ta’minlovchi til birliklariga, vositalarga malakali so‘zlovchi, ya’ni yozuvchilar har doim o‘ta sezgir nigoh bilan qaraydilar. Ma’lumki, tilda ekspressivlikni ifoda etishning turfa xil imkoniyatlari mavjud. Bu kabi imkoniyatlarning naqadar kenglikda ekanligi tilning ham nechog‘lik boy ekanligini ko‘rsatib beruvchi mezonlardandir.

O‘zbek tilshunoslik olamida so‘z san’atkorlarining badiiy matnlarda so‘z qo‘llash usullari, matnning badiiy-estetik qiymatini sezilarli darajada oshiruvchi til birliklari, ularning o‘ziga xos xususiyatlari hamda badiiy nutqda tutgan o‘rni haqida bayon etilgan qimmatli manba bu o‘zbek tilshunosligining ardoqli vakillari bo‘lgan X.Abdurahmonov va N.Mahmudovlar qalamiga mansub bo‘lgan “So‘z estetikasi” nomli qo‘llanmasi hisoblanadi. Mualliflar ushbu qo‘llanmada “lisoniy birikmalar” terminini tilga oladi, unga alohida to‘xtaladi va shunday ta’rif keltiradi.[1. 38].

Professor N.Mahmudov o‘zining “So‘z shayxining mo‘jizalari” nomli maqolasida “lisoniy birikmalar” terminini yana shunday izohlaydi: “Muallif bunday birikmalarni tuzar ekan, u til qonuniyatlariga nopisandlik yoki zo‘rlik qilmaydi. Hassos so‘zchi sifatida u tilning botinida, tub qatlamlarida yashiringan so‘z qo‘shilishi imkoniyatlarini badiiy niyatiga muvofiq tarzda ishga soladi.



Buning natijasida kutilmagan soʻz qoʻshilmalari yuzaga keladi, ular oʻquvchi diqqatini oʻziga jalb qiladi va uni oʻylashga chorlaydi, alal-oqibat u bu qoʻshilmalarda pinhon boʻlgan maʼno injaliklarini kashf etadi"[2.] Darhaqiqat, lisoniy birikmalar har qaysi muallif tomonidan individual xususiyatga koʻra hosil qilinadi. Badiiy asarni yozishda yozuvchilar soʻzlarning shunday yashirin semantik qirralarini izlab topadilarki, ularni oʻzaro shunday mahorat bilan biriktirilarki, natijada oʻquvchi bu birikmani oʻqiganda unda ajib bir taassurot, oʻzgacha hissiyot va boy tasavvur olami paydo boʻla boshlaydi.

Yuqoridagi fikrimizning isboti oʻlaroq professor N.Mahmudov shunday taʼkidlaydi: "yashil oʻtloq birikmasi mantiqan toʻgʻri, lekin, «yashil navo» birikmasi mantiqan notoʻgʻri, yoki baqirgan odam — mantiqan toʻgʻri birikma, «baqirgan sukunat» esa — mantiqan toʻgʻri emas. Shuningdek, soʻzlarning grammatik tabiatiga koʻra ham ular oʻzaro bogʻlana olmasliklari mumkin. Nihoyat, soʻzlarning oʻzaro bogʻlanishiga ularning har biriga xos boʻlgan leksik xususiyatlari ham toʻsqinlik qilishi mumkin. Masalan, yutuqqa erishmoq, muvaffaqiyatga erishmoq deb ishlatish mumkin, biroq «kamchilikka erishmoq», «muvaffaqiyatsizlikka erishmoq» deb aytish mumkin emas va hokazo[1. 40]

Adabiy tilda soʻzlarning qoʻshilish imkoniyatlari anchayin cheklangan, badiiy nutqda esa bu chegara bir muncha oʻzining kuchini yoʻqotadi va bu imkoniyat kengayadi. Chunki badiiy nutqda soʻzlarni koʻchma maʼnoda qoʻllashdan juda keng foydalaniladi. Shu sabab badiiy nutqda soʻzlarning qoʻshilishidagi cheklanishlar ortga chekinadi. Masalan, quyidagi – sovuq ohang, achchiq qismat, zaharli ovoz va shu kabi birikmalarda soʻzlar oʻz maʼnosida tushunilsa, bu soʻzlarning birikishi mutlaqo bemantiq boʻlib koʻrinadi. Biroq ular badiiy nutqda juda mantiqiy, shu bilan birga obrazlidir. Shu bois badiiy asar tilini borliq hodisalari bilan aynan mutanosibli yuzasidan baholash asossiz hamda notoʻgʻri boʻladi. «Fransuz stilistikasi» deb nomlangan kitobida Shveysariyalik olim Sharl Balli(M.. 1961); «...agar olim yoki injener tilning «qiyofasini oʻzgartirish» va yanada mantiqli, mulohaza uchun qulay qilish maqsadida oʻzgartirsa, yozuvchi mutlaqo individual fikrni, yaʼni effektiv va estetik mazmuni ifodalashga qulaylashtirish uchun uni qayta quradi», [4]— deya taʼkidlagan edi. lisoniy birikmalar ana shu «mutlaqo individual fikrlarni» individual holatda ifodalash vositalaridan biridir, deya taʼkidlaydi N.Mahmudov. Darhaqiqat, nutqda odatiy boʻlmagan bunday birikmalar oʻzlaridagi «yangilik», individuallik va ayni lisoniylik xususiyatlari bilan diqqatni tezda oʻziga jalb qiladi, kitobxon bu birikmalarni oʻqir ekan, beixtiyor ular ustida oʻylay boshlaydi, natijada yozuvchi



o'ylagan niyatini chuqurroq anglab yetadi. Shu sabab ham nutqimizdagi odatiy birikmalarga ko'ra, lisoniy birikmalar o'zining badiiylik kasb etishi nuqtai nazaridan ko'proq ahamiyatga egadir.

Biroq ba'zida badiiy bo'lmagan nutqda ham shu kabi birikmalar uchrab turadiki, ulardagi so'zlarning asl ma'nolari bir-biriga umuman to'g'ri kelmaydi. Shunday bo'lsada, biz uchun ular xuddi odatiy birikmalardek tuyuladi, so'zlarning bog'lanish qonuniyatlariga zid keladigan biror hodisa yo'qdek ko'rinadi. Lekin yaqindan nazar solinsa, bu birikmalarda ham so'zlardagi bog'lanish chegaralaridan chiqish, ma'lum ma'noda chekinishlarning mavjud ekanligi ko'zga tashlanadi. Misol uchun, shirin so'z birikmasini tashkil qilgan so'zlarning ma'nolariga diqqat qilaylik. Ma'lumki, "shirin" so'zi ta'm bilish a'zosi bilan his qilinadigan belgini anglatsa, "so'z" so'zi esa eshitish a'zosi yordamida sezish mumkin bo'lgan tushunchani bildiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov X., Mahmudov N. So'z estetikasi, - Toshkent, Fan nashriyoti. – 1981. – 38-b.
2. Mahmudov N. So'z shayxining mo'jizalari. - "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi. 2009, 7-son.
3. Makhramovna, B. D. (2023). Methodical Views of Nizamiddin Mahmudov. *World of Science: Journal on Modern Research Methodologies*, 2(3), 149-154.
4. Boshmanova, D. (2023). Nizomiddin Mahmudovning lingvistik qarashlari. *Qo'qon DPI. Ilmiy habarlar*.
5. Xolmanova, Z. (2020). Kompyuter lingvistikasi. Nodirabegim:.-Toshkent, 247.
6. Boshmanova, D. (2023). HOZIRGI O'ZBEK TILSHUNOSLIGI TARAQQIYOTIDA PROFESSOR NIZOMIDDIN MAHMUDOVNING XIZMATLARI. *Jurnal. namdu. uz*, 3(3), 676-681.
7. Xolmanova, Z. (2022). Omonimlar–tafakkur omili. Uzbekistan: Language and Culture, 1(1).